

QASHQADARYO VILOYATIDAGI SHIFOBAXSH BULOQLAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Abdimo‘minov Tog‘oy Nazar Abdinaxat o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimiz hududidagi yer osti boyliklari milliy iqtisodiyotimizning asosini tashkil etish bilan birgalikda, jamiyatda yashovchi insonlar salomatligi uchun ham ahamiyatli resurslardan hisoblanadi. Yer ostidan chiquvchi suvlarning shifobaxsh xususiyatari insonlarning faol hayot tarzini kechirishida muhim omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatidagi shifobaxsh buloqlar va ularning qaysi kasalliklarni davolash xususiyatlariga ega ekanligi, ulardan foydalanish bo‘yicha taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: shifobaxsh suvlar, kurort maskanlar, *Kamolbuloq, Xo‘jayipak, Qo‘tirbuloq, Oqsuv.*

HEALING SPRINGS AND THEIR PROPERTIES IN THE KASHKADARYA REGION

Abdimo‘minov Togaynazar Abdinakhat’s son

Teacher of the Termez State Pedagogical Institute

Annotation: the underground resources in the territory of our country, together with the formation of the basis of our national economy, are also considered to be of significant resources for the health of people living in society. The healing properties of the waters that flow out of the underground remain one of the important factors in the survival of an active human lifestyle. In this article, suggestions and conclusions have been developed about the healing springs of the Kashkadarya region and what diseases they have healing properties, their use.

Keywords: Healing Waters, Resort lodges, immature, Boshipak, Scarecrow, lame.

O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi 837-XII-sonli “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” gi Qonuni qabul qilingan bo‘lib, mazkur qonunning XII bobida “Suv obyektlaridan davolash, kurort va sog‘lomlashtirish maqsadlarida foydalanish” tartibi belgilab qo‘yilgan. Ushbu bobning 44-moddasida “Belgilangan tartibda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan suv obyektlaridan, avvalo, davolash va kurort maqsadlarida foydalaniladi” deb yozib qo‘yilgan.

Mamlakatimizda shifobaxshlik xususiyatiga ega bo‘lgan buloqlar soni juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Garchand shifobaxsh buloqlar soni ko‘p bo‘lsada, ularning davolash xususiyatlari o‘xshash bo‘lishi mumkin. Bunday yer osti suvlarining to‘yinishidagi minerallar tarkibi o‘xshash yoki bir-biriga yaqin bo‘ladi. Qashqadaryo viloyatida joylashgan shifobaxsh buloqlarning aksariyati davolash xususiyati o‘xshash bo‘lib, hattoki ularning nomlari xam bir-biriga yaqin.

Qashqadaryo viloyatida joylashgan shifobaxsh buloqlarning asosiy qismi viloyatning tog‘li tumanlari (Kitob, Shahrisabz, Qamashi, Dehqonobod) ga to‘g‘ri keladi (1-jadval). Mazkur buloqlarning asosiy qismi dengiz sathidan 850 m dan boshlanadi. Ularga Xo‘jayipak, Kamolbuloq, Qo‘tirbuloq, Oqsuv kabi buloqlarni keltirish mumkin.

Qashqadaryodagi buloqlar haqida ma’lumot

№	Buloqlar nomi	Geografik koordinatasi	Joylashgan o‘rni
1	Mironqulsoy	39°21'41.8"sh.k, 66°35'21.9"shq.u.	Kitob tumani
2	Qorabuloq	39°16'32"sh.k, 67°7'46.5"shq.u.	Kitob tumani
3	Qaynarbuloq	39°14'15.7" sh.k, 66°54'52.7" shq.u.	Kitob tumani
4	Roxatbuloq	39°16'40.6"sh.k, 66°55'6.7"shq.u	Kitob tumani
5	Hazrati Beshir	39°16'26.0"sh.k, 67°06'29.0"shq.u.	Kitob tumani
6	Tuyaboshi	39°11'55.2"sh.k, 67°10'48.2"shq.u.	Kitob tumani
7	Qo‘shchinor	39°12'07.9"sh.k, 67°09'55.1"shq.u.	Kitob tumani
8	Oqsuv shamoli	39°05'55.3"sh.k, 66°44'38.3"shq.u	Shaxrisabz tumani
9	Miraki	39°02'01.6"sh.k,	Shaxrisabz tumani

		67°07'00.9"shq.u.	
10	Chashmabuloq	39°06'49.9"sh.k, 67°30'49.2"shq.u.	Shaxrisabz tumani
11	Garob	39°06'49.9"sh.k, 67°30'49.2"shq.u.	Shaxrisabz tumani
12	Suvtushar	38°56'60.0"sh.k, 67°20'28.0"shq.u.	Shaxrisabz tumani
13	Zarmast	38°45'46.4"sh.k, 67°07'46.5"shq.u.	Yakkabog‘tuni
14	Qaynarbuloq	38°36'43.6"sh.k, 67°10'22.7"shq.u.	Dehqonobod tumani
15	Qamchinbuloq	38°36'43.6"sh.k, 67°10'22.7"shq.u.	Dehqonobod tumani
16	Beshbuloq	38°30'50.6"sh.k, 66°40'00.7"shq.u.	Dehqonobod tumani
17	Anorbuloq	38°25'59.1"sh.k, 66°38'55.9"shq.u.	Dehqonobod tumani
18	Oqsuv	38°26'44.4"sh.k, 66°31'21.6"shq.u.	Dehqonobod tumani
19	Qorabuloq	38°11'54.8"sh.k, 66°32'34.8"shq.u.	Dehqonobod tumani
20	Xo‘jaipak	38°02'20.0"sh.k, 66°23'20.6"shq.u.	Dehqonobod tumani
21	Vodozobor	38°41'01.4"sh.k, 66°20'12.2"shq.u.	G‘uzor tumani
22	Qashqadaryo sohili	38°53'14.8"sh.k, 65°49'12.3"shq.u.	Qarshi shahri

Qashqadaryo viloyatidagi buloqlarini tarkibiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘lish mumkin:

1.Gidrokarbonatli buloqlar: Mironqulsoy, Roxatbuloq, Hazrati Beshir, Tuyaboshi, Qo‘shchinor, Chashmabuloq, Suvtushar, Zarmast, Vodozobor;

2.Sulfatli buloqlar: Qashqadaryo sohili, Xo‘jaipak, Qorabuloq (Dehqonobod), Oqsuv, Anorbuloq, Beshbuloq, Qamchinbuloq, Qaynarbuloq (Dehqonobod), Garob, Miraki, Oqsuv shamoli, Qaynarbuloq (Kitob), Qorabuloq (Kitob).

Kamolbuloq shifobaxsh suvli bulog‘i Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida dengiz sathidan 1020 m balandlikda Karashina MFY hudududagi Dehqonobod soyligida joylashgan. Geografik koordinatasi 38°21'43.6" sh.k, 66°40'14.2" shq.u ga teng. Bulog suvi tarkibi asosini biokarbonat (HCO_3), magniy

(Mg²), sulfat (So₄), natriy (Na), kalsiy (Ca²) elementlari tashkil etadi. Biokarbonat siydikni ishqorlashtiradi, siydik kislotasi va oksalat toshlariga qarshi foydali hisoblanadi. Magniy oksalat toshlarini kamaytirishga yordam bersa, sulfat siydikda kalsiy darajasini pasaytiradi, natriy ayrim holatlarda siydik hajmini oshirishga yordam beradi. Mazkur suv buyrak toshini tushurishga yordam beradi.

Xo'jayipak shifobaxsh suvi Dehqonobod tumani Nasos MFY hududida joylashgan. Buloq suvini shifobaxshligi xilma-xil bo'lib, hududdan chiqayotgan ma'danli suv va unga yondosh ko'z, tish, gijja kasalliklarini davolash uchun chiqayotgan suvlar tashkil etadi. Mazkur hududga may-avgust oylarida odamlar tashrifi ko'payadi. Shuningdek ushbu joydagi shifobaxsh balchiq tana a'zolarimizdagi turli shamollash kasalliklaridan forug' bo'lishimizga yordam beradi.

Xo'jayipok bulog'i Qashqadaryo viloyatida Dehqonobod tumani markazidan 35 km janubdagi Qirshaksoy vodiysida joylashgan bo'lib, buloq dengiz sathidan 850 m balandlikda joylashgan¹. Buloq suvi ohakli jinslarga boy qatlamlar orasidan chiqib turadi. Buloq chiquvchi joy diametri 15 m bo'lib, chuqurligi 2,5 m ga teng. Buloqning suv sarfi 45 l/s ni tashkil etadi. Buloq suvi tarkibida vodorod sulfid (H₂S-20 mg/l), tuz (60 mg/l), ishqorlar (pH-8,2) va natriy xlorid kabi minerallar bor. Mazkur buloq suvi tarkibida vodorod sulfid miqdori ko'p bo'lganligi uchun shifokor ruxsatisiz foydalanish tavsiya etilmaydi.

Xo'jayipak shifobaxsh bulog'i dengiz sathidan 900 m balandlikda joylashgan bo'lib, bu yerda keluvchi odamlar uchun milliy o'tovlar dam olib xordiq chiqarishimizda yordam bersa, shifobaxsh suvli vannalar va balchiqli chuqurchalar muolaja olishimizga yordam beradi.

Qo'tirbuloq shifobaxsh suvli bulog'i Kitob tumani Qaynarbuloq MFY, Qaynar qishlog'ida dengiz sathidan 1070 m balandlikda hamda 39°15'41.8" shimoliy kenglikda va 66°54'41.9" sharqiy uzoqlikda joylashgan. Buloq suvi negizida Mingchinor sanatoriyasi faoliyat yuritmoqda. Mazkur shifobaxsh suv teri kasalliklari, har xil toshmalarni davolashda foydalidir. Suvning tarkibi vodorod

¹ Ковалев Ю.С., Калабугин Л.А. "Сирли" булоқлар. Тошкент. Мехнат 1987-й. 74 бет.

sulfid (H_2S -yallig'lanishga qarshi, teri yangilanishini tezlashtiradi, ekzema, psoriaz, dermatit uchun foydali), radon (Rn-tashqi muolajalar uchun ishlatiladi (vannalar); immunitetni tartibga soladi, allergik teri kasalliklarida qo'llanadi), sulfat (SO_4), selen (Se), rux (Zn), magniy (Mg^2), kalsiy (Ca^2), natriy (Na), karbonat (CO_3), yod (I), brom (Br) kabi elementlarga boy. Mazkur suvlarni ishlatishdan oldin shifokor ruxsatini olish maqsadga muvofiqdir.

Oqsuv bulog'i Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida joylashgan. *Oqsuv* bulog'i suvining shifobaxsh xususiyatlari ko'p bo'lib, asosan hazm qilish tizimi kasalliklari (oshqozon, ichak muammolari), teri kasalliklari (dermatit, ekzema va boshqa yallig'lanishlar), nerv tizimi kasalliklari (stress, bosh og'rig'i, asabiy zo'riqish), buyrak va siydik yo'llari kasalliklari, qon aylanish tizimi muammolari kasalliklarida foydalaniladi.

Qashqadaryo viloyatida shifobaxsh buloqlar negizida tashkil qilingan sanatoriya va dam olish muasasalari ham mavjud bo'lib, ular ko'pchilikni tashkil etmaydi. Sanatoriya va kurort maskanlarning tashkil qilinishi shifobaxsh buloqlardan foydalanuvchilar sonining oshishi bilan birga tibbiy turizmning viloyat hududida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur hududlarni tashkil qilish orqali hududlarda ishsizlar qatlamining kamayishiga hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining ko'payishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ковалев Ю.С., Калабугин Л.А “Сирли” булоқлар. Тошкент. Меҳнат 1987-й. 74 бет.
- 2.Nazarov M.G, Bozorov M.I, Zokirova O.Z “Qashqadaryo viloyatida joylashgan buloqlarning shakllanishi hamda ularning mihofaza qilish masalalari”. "Экономика и социум" №3(130) 2025.
3. Komilova N.K., & Abdimo'minov T.A. (2023). The geographical basis of studying mineral springs. Экономика и социум, (1-2 (104)), 62-65.
- 4.T.A.Abdimo'minov (2022). Surxondaryo viloyati mineral buloqlarining shifobaxshlik xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 3 (3), 810-814.